

TASVIRIY SAN'AT SHAKLLANISHIDA QADIMGI  
YEVROPA VA SHARQ

**Rahmatova Shahlo Ikrom qizi**

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Fizika va texnologik ta’limi fakulteti, Libos va  
gazlamalar yo’nalishi talabasi, Jizzax, O’zbekiston*

*e-mail: [shaxloraxmatova6@gmail.com](mailto:shaxloraxmatova6@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Ortiqova O.*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san’atning shakllanish tarixi, bu borada qadimgi Yevropa va Sharq mamlakatlarining o’ziga xos ijodiy jarayonlari haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.*

**Kalit so’z :** *san’atlar sintezi , tasviriy san’at , tarix , janr , klassik (mumtoz) , me’morchilik , amaliy bezak.*

\*\*\*

**Аннотация:** *В статье обсуждается история, становление и история изящных искусств в Европе и Востоке.*

**Ключевые слова:** *синтез искусств, изобразительное искусство, история, жанр, классика, архитектура, декоративно-прикладное искусство.*

\*\*\*

**Annotation:** *This article discusses the history formation and history of fine arts in Europe and Orient.*

**Key words:** *synthesis of arts, fine arts, history, genre, classical, architecture, applied decoration.*

Tasviriy san’at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san’at turi; voqelikni uning osongina ilg’ab olinadigan fazoviy shakllarda ko’rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o’choqlaridan hisoblangan O’rta Osiyo, uning ajralmas qismi O’zbekiston hududida ham Tasviriy san’at ijtimoiy hayotda muhim o’rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi nozik o’zgarishlarni o’zida aks ettiradi. Zarautsoy rasmlari, Xorazm, So’g’d, Baqtriya mahobatli haykal va rangtasvirlari shuning dalilidir.

O’rta asrlar Tasviriy san’ati uslub jihatidan rang barang, turlari keng va xilma xil, bu davrda mahobatli haykaltaroshlikning nodir namunalari yuzaga keldi. Hindiston, Indoneziya, Hindixitoy o’lkalarida betakror haykaltaroshlik asarlari yaratildi. O’rta Sharq mamlakatlarida miniatyuraning o’ziga xos turi yaratilgan bo’lsa, O’rta asr Yevropa madaniyatida haykaltaroshlik va rassomlik diniy e’tiqod

va dunyoqarashlar zaminida o’ziga xos yo’nalish va mazmun kashf etdi va ravnaq topdi. Roman uslubi va gotika barpo etilgan memoriy obidalarda san’atlar sintezining ajoyib namunalari yaratildi.

XIII-XVI-asrlar Tasviriy san’atida dunyoviy mavzu va qarashlarning kuchayib borishi tasvirlarda borliqda mavjud shakl va ko’rinishlarning ortishi bilan belgilanadi. Shu harakat va taraqqiyotda Tasviriy san’atning qonun-qoidalarini ilmiy asosda o’rganishga qiziqish ortdi. Optika, anatomiya, perspektiva, nur soya nazariyasiga oid muhim tadqiqotlar qilindi. XVII-XIX-asrlarda Tasviriy san’at uslub jihatidan rang barang, milliy mahalliy maktablar rivoji bilan san’at olamining kengayishi boshlandi. Bu davrda, ayniqsa, monumental san’at o’zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi; rassomlar, me’morlar, haykaltaroshlar, hunarmandlar san’atlar sintezining ajoyib namunalari yaratdilar. Bu yutuqlarda rassom va haykaltaroshlarning o’rni aloxida. Tasviriy san’at tur va janrlari ko’paydi, realistik yo’nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyumort, maishiy janr) yetakchi o’ringa chiqq boshladi. Uyg’onish davri Tasviriy san’atiga xos bo’lgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibliigi o’rmini jo’shqin shakl va ranglar o’yini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. XVII-asrdan Tasviriy san’atda klassitsizm yo’nalishi hukm surgani holda borliqni o’ziga o’xshash shakllarda aks ettiruvchi asarlar yaratilishi ortib bordi. Akademik ta’lim tizimining yo’lga qo’yilishi professional san’at maktablarining taraqqiyotini ta’minladi. Mumtoz (klassik) realistik (akademik) san’at uslublaridan chekinish, noan’anaviy uslublar izlashga intilish boshlandi. Bu hol impressionizm, postimpressionizm va boshqa uslublarning shakllanishi va rivojlanishida o’z ifodasini topdi.

San’atlar sintezi - bir badiiy asar yoki yaxlit ansamblni yaratishda turli san’atlar va san’at asarlarining o’zaro uzviy bog’lanishi; insonning moddiy va ma’naviy muhitini estetik jihatdan tuzishga xizmat qiladi. San’atlar sintezi tushunchasi sifat jihatdan yangi badiiylik yaratishni nazarda tutadi. San’at sintezida har biri o’zining cheklangan ifoda va tasviriy imkoniyatiga ega bo’lgan san’atlar birlashuvi natijasida ifodasi beqiyos yangi badiiy asar yuzaga keladi. Badiiy asar g’oyasi, obraz va kompozitsion butunligi, makon va zamoni yaratishdagi umumiy ishtiroki, ko’lami, ritmidagi monandlik san’atda ularni idrok etishni kuchaytirib, sifat o’zgarishlarini yuzaga keltiradi; badiiy g’oyalar rivojiga ko’p planlilik, serqirralik baxsh etib, insonga har taraflama to’la hissiy ta’sir ko’rsatadi. Teatr, kino va unga yaqin fazoviy san’atlar tabiatan mujassamlashtiruvchi bo’lib, bular dramaturg (senariychi), aktyor, rejissyor, rassom, kinoda, shuningdek, operator ijodini birlashtiradi; musiqali teatrdan dramatik san’at, vokal va cholg’u asboblari

musiqasi, xoreografiya va h.k. bir butunlikda namoyon bo‘ladi. Rejissyorlik san‘ati badiiy teatr yoki kinematografiya asarlarini yangi butunlikka birlashtiradi.

San‘at tarixida sintezning xilma xil turlari ma’lum. Tasviriy san‘at, amaliy san‘at asarlari va me’morlik hamisha o‘zaro bog‘lanishga, birlashishga moyildir. Bunda rangtasvir, haykaltaroshlik asarlari o‘z vazifasini bajarish bilan birga me’moriy obrazni boyitadi. Bu nafis uyg‘unlikda, odatda, amaliy bezak san‘ati, dastgoh san‘ati asarlari (kartina, haykalcha va sh.k.) ishtirok etadi. Sintez san‘at turlari (masalan, kinoda xronika, reportaj va h.k. usullarni badiiy filmda qo‘llash) va san‘atlararo (masalan, teatr voqealariga kinematografiya tasvirini kiritish) turli darajada amalga oshiriladi. San‘at sintezida ishtirok etayotgan san‘atlar orasidagi muvozanat turlicha bo‘ladi, san‘atning biriga aloqador bo‘lgan sifat ham (masalan, klassitsizmga nafis san‘atlarning mutanosibliigi, yunon san‘atidagi "nafislik", barokko san‘atidagi "tasviriylik" va boshqalar) umumiy ahamiyat kasb etadi. San‘atning bir turi qolganlarini o‘ziga bo‘ysundirib (masalan, Qadimgi Misr me’morligi haykaltaroshlik va rangtasvirni) to‘liq hukmronlik qilishi nazarda tutiladi. Rassom (haykaltarosh)ning g‘oyasi tufayli san‘at turlari o‘zaro chatishib ketishi bir-birini to‘ldirishi va bir-biriga keskin qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin.

Ibtidoiy jamoa tuzumida san‘atlar turlarga bo‘linmagan, qorishiq holda bo‘lib, inson faoliyati va uning marosimlari bilan bevosita qo‘shilib ketgan. San‘atlar o‘z xususiyatlari va o‘ziga xosligini namoyon etib bo‘lina boshlaganda teskari jarayon - ularning sinteziga intilish yuzaga keldi. Qadimgi Sharq madaniyatidan boshlab ibodatxona diniy marosimlari bilan yagona g‘oyaga bo‘ysundirilgan me’moriy elementlar, tasviriy va amaliy bezak san‘ati, og‘zaki va yozma ijodiyot, shuningdek, marosim harakatlari San‘atlar sintezining dastlabki ko‘rinishlari sifatida maydonga chiqdi. Mahobatli Misr ehromlari me’moriy unsurlarning ramziy ko‘rinishlariga yunon madaniyati insonning yuksakligini ifodalovchi me’morlik va haykaltaroshlikning uyg‘un holdagi birikuvini qarama-qarshi qo‘ydi. Uyg‘onish davrida san‘atning bo‘linishi yuzaga keldi; sintezning har bir san‘atning o‘z mustaqilligiga asoslangan yangi shakllari paydo bo‘ldi. Uyg‘onish davri ustalari (Bramante, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar) ijodida san‘atning yaxlit, uyg‘unlashgan ansamblga birikishining umumiy qoidalari alohida to‘laqonli ishlab chiqildi. XX-asr San‘atiga oid muhim ishlar ilg‘or ijtimoiy va inqilobiy harakatlar ta’sirida (D. Rivera, D. Sikeyros, X. Orosko va boshqalar) jamoat qurilishlari, me’moriy inshootlar va ko‘rgazmalar majmualari yaratilishi, shuningdek, ma’lum g‘oyalarga yo‘naltirilgan bayramlar, xalq yurishlari, festivallar va h.k.ni bezash bilan bog‘liq.

Sharqda (Qadimgi Hindiston, Xitoy), jumladan, O’rta Osiyoda qadimdan yaratilgan ibodatxona, saroylar, butun bir shaharlar - Xolchayon, Varaxsha, Tuproqqal’a, Afrosiyob saroylari San’at sintezining xilma xilligini ko’rsatadi. Navoiy teatri, Muqimiy teatri, Toshkent metropoliteni bekatlari, Xalqlar do’stligi saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Al-Buxoriy yodgorlik majmui va boshqa binolar chinakam xalq san’atining ajoyib uyg’unlashgan san’at namunasi.

Xulosa shundaki qadimgi tasviriy san’at va uyg’unish davri Yevropa va Sharq tasviriy va amaliy san’atini o’rganish, bilim va ko’nikmalarni oshirish, bu orqali turli davrlar va davlatlarda estetik didning qay darajada bo’lganligini bilish muhim hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abdurasilov S., Tolipov N., Oripova N., Rangtasvir. Toshkent. O'zbekiston, 2006 .
2. Puchkov A.S., Tiriselev A.V. Metodika raboti nad natyumortam 2001
3. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).
4. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).
5. Тагаев, Х. И. Т., & Исмаилов, Т. (1992). Совершенствование профориентационной подготовки в условиях обучения без отрыва от производства «Проблемы подготовки специалистов по профориентации в педвузе» Материалы Международная научно-практическая конференции.
6. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
7. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
8. Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

- 9.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
- 10.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортиқова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.
- 11.Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).
- 12.Orishev, J. (2020). Ёшларни касбга йўналтиришда шарқона қарашлар ва педагогик масалалар. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 13.Orishev, J. (2020). The use of information and communication technologies in the educational process. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 14.Orishev, J. (2020). Criteria for assessing practical work in higher education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 15.Orishev, J. (2020). The main stages of Project Education. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 16.Orishev, J. (2020). Роль информационных технологии в подготовке будущих учителей технологического образования. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 17.Orishev, J. (2020). Олий таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг имкониятлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 18.Sharipov, S. (2020). КАСБИЙ ПЕДАГОГИКА. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 19.Sharipov, S. (2020). ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 20.Sharipov, S. (2020). ИЖОДҚОРЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ: МЕТОДЛАРИ, МАЗМУНИ ВА ТАШКИЛИЙ ШАКЛЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 21.Sharipov, S. (2020). ТАЛАБАЛАР ИХТИРОЧИЛИК ИЖОДҚОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 22.Sharipov, S. (2020). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ Т И З И М И. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

23.Sharipov, S. (2020). ИДЕИ О ТВОРЧЕСКОМ ТРУДЕ В УЧЕНИИ КД УШИНСКОГО. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

24.Sharipov, S. (2020). ТРЕБОВАНИЯ К ФОРМИРОВАНИЮ ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

25.Sharipov, S. (2020). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЁШЛАР МУСТАКИЛ–ИЖОДИЙ ФИКРЛАШИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

26.Sharipov, S. (2020). КАСБИЙ КЎНИКМА ВА МАЛАКАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ВИРТУАЛ ТРЕНАЖЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

27.Sharipov, S. (2020). МУХАНДИС-ПЕДАГОГ ШАХСИНИНГ ИННОВАЦИОН ХИСЛАТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

28.Sharipov, S. (2020). РАЗВИТИЕ ЕДИНОГО ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА ВУЗОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРТАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

29.Sharipov, S. (2020). ЎҚУВЧИЛАР БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ИЖОДКОРЛИК МЕТОДЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*